

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI XO‘JALIGI

Chorshanbiyev Boyto‘ra

(Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
“Matematika, tabiiy-gumanitar fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi)
va Ollomurodov Nurali (Denov shahar tadbirkorlik
va pedagogika instituti o‘qituvchisi)

ABSTRACT

Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davri xo‘jaligi haqida ko‘plab qiziqarli ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Ushbu ma’lumotlar orqali o‘sha davr xo‘jaligi haqida o‘z tasavvuringizni boyitishingiz mumkin.

Keywords: Obirahmat, Mazdahin, Bozor, Korand, Nahri jadid, Damashq, Qohira, Bag‘dod, Sultonija, Sheroz, Obikor, qo‘riq yer, bo‘z yer, sayilgoh, chorbog‘.

Amir Temur va Temuriylar davri xo‘jaligining iqtisodiy hayotida dehqonchilik asosiy o‘rin tutgan. Shu bois Amir Temur va Temuriylar dehqonchilikning bosh omili bo‘lgan sug‘orish ishlariga katta ahamiyat berishgan. XIV asrning oxiri-XV asrning dastlabki yarmida Movarounnahr va Xurosonning talay hududlarida bir qancha sug‘orish tarmoqlari qazilib foydalanishga topshirilgan. Ularga misol tariqasida suv omborlari-bandlar, turlicha korizlar, va har xil hovuzlar qurilib, suv tanqis hisoblangan viloyat va vohalar, shahar, qishloqlarning suv ta’minati tubdan yaxshilangan. Qo‘riq va bo‘z yerlar o‘zlashtirilib, obikor yerlarning maydoni kengaytirilgan. Yangi-yangi qishloqlar, Chorbog‘lar va sayilgoh bo‘stonlar barpo etiladi.¹ Amir Temur Samarqand vohasi, poytaxt va uning tevarak atrofini obod etilishiga alohida e’tibor bergen. Obirahmat, Mazdahin, Bozor, Korand va Nahri jadid kabi sug‘orish tarmoklari orqali obod etilgan qishloqlarning soni 72 taga yetgan. Yangi qishloqlarning bir qismi

¹ Ahmedov B. Amir Temur haqida hikoyalar. – T., “Yozuvchi”. 1998-yil. 54-bet.

Sharqning mashhur shaharlari: Damashq, Qohira, Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan ulug‘langan.¹

Sohibqiron Xuroson, Eron, Kavkaz va boshqa viloyatlarda ham bir qancha yirik sug‘orish ishlarini amalga oshirgan. Uning farmoni bilan Murg‘ob daryosidan 20 dan ortiq sug‘orish tarmoqlari qazilib, Marv vohasi qayta obod etilgan. 1401 yil Kavkazning Baylaqon mavzeida Arake daryosidan chiqarilgan Barlos kanali zamonasining yirik irrigatsiya inshootlaridan biri bo‘lgan. Kanalning uzunligi 10 farsax (60-70 km) bo‘lib, kemalar qatnay olgan.²

Shohrux va Ulug‘bek hukmronligi davrida ham sug‘orish ishlari yanada kengaygan. Dashtlarga suv chiqarilib, bo‘z yerlar o‘zlashtirilgan. Xususiy sohibkorlar esa, hatto bir-ikki yil davomida soliq va to‘lovlardan ozod etilgan. Bu davrda Temuriylar Samarqand, Qashqadaryo, Marv vohalari, Tus vodiysi va Xirotda yirik sug‘orish inshootlari barpo etilib, dehqonchilik maydonlarining suv ta’minotini tubdan yaxshilashgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida mulkchilik munosabatlari yanada takomillashgan. Mulkning, asosan, 4 shakli: mulki devon (davlat yerlari), mulk (xususiy yerlar), mulki vaqf (madrasa va masjidlar tasarrufidagi yerlar) va jamoa yerlari bo‘lgan. Yerlarining katta qismi davlat mulki hisoblangan, ularni «suyurg‘ol» yoki «tarxon» tarzida in’om qilish keng tarqalgan. Tarxonlik amirlar, beklar, saroy amaldorlari, sayyidlar va boshqa yuqori tabaqa vakillariga berilgan.

Amir Temurning bunyodkorlik sohasidagi amalga oshirgan ishlari, shaharlarni har tomonlama yangilash, bog‘-rog‘lar, masjid-u ko‘priklar qurish bilan bir qatorda mamalakatdagi ilm ahliga berilgan yuksak e’tibor mana bir necha asrlar o‘tsa-da biz yosh avlodlarga ibrat bo‘lib kelmoqda. Davlatimiz rahbarining ham ana shunday islohotlari nafaqat mamlakatimiz aholisi orasida, balki butun dunyoda yuksak e’tirofga etilmoqda.

¹ С. Сайддосимов, А Ахмедов, Б. Ахмедов. Амир Темур жаҳон тарихида. Т., “Шарқ”. 2001-й. 98 -б.

² Темур тузуклари. Т., “Шарқ”. 2005-й 79-бет.

Ko‘plab yozma manbalarning ma’lumot berishicha, o‘z davrining yirik harbiy va davlat boshlig‘i bo‘lgan Amir Temur siyosiy, huquqiy asoslarga ega bo‘lgan ulkan davlat barpo etgan edi.¹

Misol uchun, “Tuzuklar”da keltirilishicha Amir Temurga piri Abu Bakr Zayniddin Toyobodiy shunday o‘git beradi: “Agar har narsani va har kimni o‘z martabasida saqlay olmasang, saltanatingga bundan ko‘p xalal va ziyon yetgay. Demak, har kimning qadr-qiyimatini, tutgan mavqeini va har narsaning o‘lchovini belgilab olishing va shunga muvoffiq ish tutishing kerak.”²

Shuningdek, “Tuzuklar”da Amir Temurning boshqaruv faoliyatini kuchli nazorat qilish, odamlardan unumli foydalanish, ularni o‘z atrofiga to‘plash va birlashtirish, katta-kichik tadbirlarni tashkil qilish borasida tutgan yo‘li haqidagi ma’lumotlar ham saqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Темур тузуклари. Т., “Шарқ”. 2005-й 79-бет.
2. Ahmedov B. Amir Temur haqida hikoyalar. – Т., “Yozuvchi”. 1998-yil. 54-bet.
3. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.36- bet.
4. С. Сайдосимов, А Ахмедов, Б. Ахмедов. Амир Темур жаҳон тарихида.Т., “Шарқ”. 2001-й. 98 -б.

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи.36- bet.

² Ahmedov B. Amir Temur haqida hikoyalar. – Т., “Yozuvchi”. 1998-yil. 54-bet